

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF DEATH
(Based on Nazar Eshonkul's "The wind cannot be caught")****Dildora Shodmonova***Teacher of the Uzbek Language and Literature**Creative school named after Abdulla Oripov*shodmonovadildora15@gmail.com*Karshi, Uzbekistan***Nafas Shodmonov***Doctor of Philological Sciences**Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at Turon University**Karshi, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: death, artistic analysis, philosophical tragedy, symbolic punishment, popular Justice, violence, conscience, Times, Justice, tragedy.

Received: 08.03.26**Accepted:** 09.03.26**Published:** 10.03.26

Abstract: Nazar Eshonkul's story "The Wind cannot be caught" interprets death not only as a biological phenomenon, but as a social, spiritual and philosophical tragedy. azar Eshonkul's story "The Wind cannot be caught" interprets death not only as a biological phenomenon, but as a social, spiritual and philosophical tragedy. Through the events and charaazar Eshonkul's story "The Wind cannot be caught" interprets death not only as a biological phenomenon, but as a social, spiritual and philosophical tragedy. Through the events and characters of the work, the author reflects on the fracture of the human soul, the impact of violence and injustice on society, as well as the instability of life. The example of the image of Bayna momo analyzes the concepts of truth, hidden revenge and folk Justice, which unfold after death. The punishment carried out in relation to the body of a timeless Horseman is interpreted as a phenomenon with symbolic and philosophical meaning, and not biological. This article analyzes the artistic and philosophical layers of death, the cross section of heroes.

O‘LIMNING BADIY VA FALSAFIY TAHLILI
(Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” asari misolida)

Dildora Shodmonova

Abdulla Oripov nomli ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

shodmonovadildora15@gmail.com

Qarshi, O‘zbekiston

Nafas Shodmonov

Filologiya fanlari doktori

Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: o‘lim, badiiy tahlil, falsafiy fojea, ramziy jazo, xalqona adolat, zo‘ravonlik, vijdon, zamon, adolat, fojea.

Annotatsiya: Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi o‘limni faqat biologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy, ma‘naviy va falsafiy fojea sifatida talqin qiladi. Asar voqealari va qahramonlar orqali muallif inson ruhining sinishi, zo‘ravonlik va adolatsizlikning jamiyatga ta‘siri, shuningdek, hayotning beqarorligi haqida fikr yuritadi. Bayna momo obrazi misolida o‘limdan keyin ochiladigan haqiqat, yashirin qasos va xalqona adolat tushunchalari tahlil qilinadi. Zamon otboqar otboqarning tanasiga nisbatan amalga oshirilgan jazo biologik emas, ramziy va falsafiy ma‘noga ega hodisa sifatida hamda o‘limning badiiy va falsafiy qatlamlari qahramonlar kesimida talqin etiladi.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ И ФИЛОСОФСКОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ СМЕРТИ
(По произведению Назара Эшонкула “Ветер невозможно удержать”)

Дилдора Шодмонова

Преподаватель узбекского языка и литературы Творческой школы имени Абдуллы Орипова

shodmonovadildora15@gmail.com

Кариши, Узбекистан

Нафас Шодмонов

Филологических наук

Профессор кафедры узбекского языка и литературы Университета «Турон» доктор

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: смерть, художественный анализ, философская трагедия, символическое наказание, народная справедливость, насилие, совесть, время, справедливость, трагедия.

Аннотация: В рассказе Назара Эшонкула “Ветер не поймать” смерть трактуется не только как биологический феномен, но и как социальная, духовная и философская трагедия. рассказе Назара

Эшонкула “Ветер не поймать” смерть трактуется не только как биологический феномен, но и как социальная, духовная и философская трагедия. Через событсказе Назара Эшонкула “Ветер не поймать” смерть трактуется не только как биологический феномен, но и как социальная, духовная и философская трагедия. Через события произведения и героев автор размышляет о переломе человеческого духа, о влиянии насилия и несправедливости на общество, а также о нестабильности жизни. На примере образа Байны Момо анализируются понятия истины, тайной мести и народной справедливости, которые раскрываются после смерти. Наказание, применяемое к телу современного жеребенка, трактуется как явление не биологического, а символического и философского значения. В этой статье будут проанализированы художественные и философские слои смерти в разрезе героев.

Kirish. Modern adabiyotning go‘zal namunalari o‘zbek adabiyotiga 90-yillar oralig‘ida kirib kelgan bo‘lib, kitobxonlar orasida ko‘pgina bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan va millat tafakkurini boyitishda muhim ahamiyatga egadir. Ana shunday yo‘nalishda yaratilgan asarlardan biri bo‘lgan, adabiyotshunoslar tomonidan eng ko‘p tilga olingan, munosabat bildirilgan, tahlil qilingan hikoyalardan biri Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida fojea poetikasini yangi shaklda yoritadi. O‘zbek nasri uchun yangilik sifatida baholangan hikoyaning o‘qishli bo‘lishining asl sababi: “... 60 yoshlilar, ya’ni o‘tgan asrning 80-yillarida adabiyotga kirib kelgan avlodning asarlari o‘zidan oldingi avlodga qaraganda, janrlar qorishig‘ida turli shakllar formulasi topishga urinishlari, poetik mushohada erkinligiga urg‘u berganligi, shakl va mazmunda serqatlamlilik, poetik g‘oyalar assotsiativ rakursga qurilganligi, o‘quvchilardan nafaqat mutolaa, balki adabiy xabardorlik va bevosita muallif bilan baravar muloqot talab qilishi, fikrda va tasavvurda, so‘zda badiiy o‘yin uyushtirishi”dir. Shu sababli yangilikka tashna kitobxonlar uchun bu asar kutilmagan sovg‘a bo‘ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Asar haqida U. Normatov, Q. Yo‘ldoshev, A. Ulug‘ov, S.Matyokubov, Mahfuza To‘ychiyeva, N. Cho‘liyeva, Nurafshon Oripova kabi bir necha olimlar va ilmiy izlanuvchilar ko‘pgina fikr bildirishgan, asar mohiyati, uning nomi, yozuvchining so‘z tanlashdagi, ifoda yo‘sinidagi o‘ziga xosliklarni tadqiq qilishgan, Bayna momodagi favqulodda kuchli xarakter manbasini sharhlab turli qarashlarni ilgari surishgan. Ular o‘z tatqiqotlarida,

asosan, asar nomining ramziyligiga, bosh qahramon bo'lgan Bayna momoga xos qat'iyati, yolg'izligi, irodasi va matonatini yuksak baholab, ayollarga xos tengsiz jasoratlar haqida fikr yuritishgan. Jumladan, Gulfiza Murodilla qizi asar nomi haqida quyidagicha mulohaza yuritgan: "... bu o'rinda shamol vaqtning, vaqt esa umrning ramzi. Shamolni to'xtatib bo'lmaganidek vaqt, o'tgan umrni ortga qaytarishning ham imkoni yo'q. Shuningdek, shamol qasos ramzi. Bayna momoning yuragidagi qasos o'ti o'chmaydi, u tobora alanga olaveradi". Asarning umumiy mazmuni esa olim N. Cho'liyeva tomonidan atroflicha tahlil qilingan. U kishining mulohazasiga ko'ra hikoyada "Davarning beshafqat silsilasida ruhan o'lgan, jisman tirik zaifa juvonning odil vaqt va musibat qaritgan, mushtdek jussasida qora xotiralar karvonini ortmoqlagan metin kampir – Bayna momoga aylanib, eri va navqiron o'g'lining qotili Zamon otboqarga bo'lgan cheksiz nafrati tasvirlanadi". Darhaqiqat, hikoya boshdan oyoq Bayna momo nafrati va uning rivojlanib borishi va oqibatda shahardan kelgan qizlardan birining bir og'iz aytgan gaplari bilan yonayotgan olovga sepilgan kerosin singari inson xayoliga keltirib, so'ng qilgan shubhasidan uyaladigan mash'um jinoyatni amalga oshiradi, ya'ni nafratdan yaralgan vulqon otiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ijodkor asarining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash maqsadida badiiy-falsafiy, tahliliy, strukturaviy-semantik, qiyosiy va konseptual metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Asar voqealari oddiy syujet bo'lib tuyulsa ham, har bir o'lim voqeasi ramziy va chuqur falsafiy ma'noga ega. Nazar Eshonqul o'quvchiga ushbu asari orqali shuni ko'rsatadiki, inson hayotini, oilasini va jamiyatni zamon shamoli belgilaydi, unga qarshi turish qiyin, ba'zan esa fojiali yakun bilan tugaydi. Bu kitobxonni chuqur o'yga toldiradi, asarning yuqumliligini oshiradi.

Bu hikoya o'zbek zamonaviy adabiyotida falsafiy-psixologik yo'sinda yozilgan asarlardan bo'lib, unda inson taqdiri, hayot va o'lim, erkinlik hamda ichki izzatlar ramziy obrazlar orqali yoritiladi. Hikoyada o'lim holatlari aniq bir voqea sifatida emas, balki ruhiy holat, ichki sinish, ma'naviy yo'qolish tarzida talqin qilinadi. Quyida o'lim mavzusi qahramonlar kesimida alohida-alohida tahlil qilamiz.

Hikoyada berilgan atrofdagi odamlar aslida jamiyat va vijdon o'limi sifatida tasvirlangan. Ular asarda fon sifatida berilgan faol obraz bo'lib, yashashni davom ettiradi. Eng achinarlisi shundaki, Tersotaliklar uchun suyangan tog', jo'yali maslahatchi, hammaning hurmatiga sazavor bo'lgan Rayim oqsoqol va uning yakka-yu yagona o'g'li o'ldirilayotgan vaqti hech kim savol bermaydi, norozilik bildirmaydi. Ular uchun o'lim — oddiy hodisa, hayot esa mexanik jarayon edi go'yo. Bu yerda o'lim befarqlik, loqaydlik, ma'naviy karaxtlik, qo'rqqoqlik, xudbinlik shaklida namoyon bo'lgan. Ya'ni jamiyat obrazi orqali yozuvchi eng xavfli o'lim — vijdon o'limi ekanini ko'rsatadi va bu holat har qanday zamonda va turli shakllarda namoyon bo'lishiga ishora qiladi.

Har bir ijodkor o'z asarini yanada ta'sirliroq chiqishi uchun undagi har bir detalga, har bir obrazga alohida e'tibor beradi. Asar sujetining to'g'riligi, kompozitsiyani ko'rsata olishi, konfliktlarni chiroyli dalillashi, kulminatsion nuqtani ochib berishi, hatto asardagi obrazlar ismini to'g'ri tanlay olishi asar ta'sirchanligini oshiradi. Yozuvchi Nazar Eshonqul ham hikoyadagi eng faol obrazlardan biriga ism qo'yishda aynan shu jihatni ko'zdan qochirmagan. Ana shunday qahramonlardan biri Zamon otboqar obrazidir.

Zamon otboqar kim? Zamon otboqar — shaxs emas, zamonaning mahsuli, zo'ravonlikni tabiiy hol deb bilgan ong timsoli. Uning ismi ham bejiz emas: zamonning egasi, bir paytlar Rayim polvonning malayi bo'lgan, keyinchalik zamonni qo'liga olgan va quliga aylangan inson. Zamon otboqar Rayim oqsoqolni va uning o'g'ilni o'ldiradi. Bu jinoyat ochiq zo'ravonlik asosida, o'z zamondoshlarining yonida sodir bo'ladi. Keyinchalik Zamon otboqarning o'zi ham Bayna momo tomonidan o'z o'g'illarining to'yi kuni ayanchli tarzda o'ldiriladi va to'y dasturxonini uchun osilgan qozonlar aza taomiga aylanadi. Uni aniq sud yoki qonun emas, zo'ravon muhit yo'q qiladi. Uning o'limi adolat emas, qonun emas, zo'ravonlikning yana bir ko'rinishi edi. Yovuzlik yovuzlik bilan "jazolanadi", lekin muammo hal bo'lmaydi. U o'ldiriladi, lekin bu adolat emas, balki qasos shakli. Asardagi o'lim shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik o'z-o'zini yo'q qiladi, ammo fojia tugamaydi.

Demak, Zamon otboqar aslida individual jinoyatchi emas, zamon yetishtirgan shaxs. Shuning uchun uning o'limi yovuzlikning tugashi emas, uning aylana bo'lib yana qaytishidir. Agar tizim o'zgarmasa, Zamon otboqar o'ladi, lekin zamona Zamonlari qolaveradi. Muallif ataylab sud, tergov, rasmiy jazoni ko'rsatmaydi. Chunki asar "Kim aybdor?"ligi haqida emas, "Qanday zamon odamni shunga majbur qildi?" degan savolga javob qidiradi.

Nazar Eshonqul "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida o'limni faqat qotillik yoki jismoniy yo'qolish sifatida emas, balki insoniylikning tanazzuli va vijdon hukmi sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, Bayna momo bilan bog'liq epizod asarning eng keskin badiiy cho'qqisi hisoblanadi.

Voqea mohiyati shundaki, asarda Zamon otboqar ota va o'g'ilni o'ldirgach ona (Bayna momo) undan ochiq qasos olmaydi, balki yashirin, jim, lekin dahshatli jazoni amalga oshiradi: Zamon otboqar tanasining eng nozik qismi vahshiyona tarzda jarohatlaydi, o'nta barmog'ini kesib, sandig'iga solib yashiradi. Bu voqea darhol oshkor bo'lmaydi, Bayna momo vafotidan keyingina ma'lum bo'ladi. Bu kechikish — tasodif emas, balki badiiy yechim. Jismoniy jazo emas — ramziy hukm. Bu epizodni shunchaki shafqatsizlik deb talqin qilish katta xato bo'ladi. Erkaklik a'zosining kesilishi — naslning jazolanishi. Zamon ota va o'g'ilni o'ldirib, naslni uzadi. Bunga javoban Bayna momo esa uning nasl berish quvvatini yo'q qiladi. Ramziy ma'noda naslni yo'q qilgan odam nasl berish huquqidan mahrum etiladi. O'nta barmoq — insoniylik va amal ramzi, mehnat, gunoh, harakat timsoli. Zamon otboqar shu barmoqlar bilan qurol ushlagan, odam o'ldirgan, jinoyat qilgan. Bayna momo esa bu barmoqlarni kesib olib, sandiqda saqlaydi. Bu

sandiq esa xotira, sir, vijdon, oriyat va haqiqat sandig'i edi. Jinoyat yo'qolmaydi, balki u yashiriladi, lekin unutildi deb bo'lmaydi.

Nega bu haqiqat Bayna momo o'lgach ochiladi? Bu juda muhim savol.

Bayna momo tirik paytda gapirmaydi, faryod qilmaydi, qahramonlik da'vo qilmaydi. U o'lgach esa sandiq ochiladi, sir ochiladi, haqiqat o'z-o'zidan yuzaga chiqadi. Bu yerda muallif shuni aytadiki, haqiqat baland ovoz bilan emas, sukutdan keyin gapiradi. Aslida, bu o'limdan keyingi adolatning yangicha qaror topishidir.

Ota — oilaning, jamiyatning, millatning tayanchi, ma'naviy ildiz timsoli. Rayim polvon ham nafaqat qishlog'ini, balki butun tog'li xalqining orini ko'targan nomdor polvon edi. Mahfuza To'ychiyeva esa oilaning tayanchi, xalqining suyanchi bo'lgan Rayim polvon haqida "...Unda yurt ozodligi uchun kurashgan favqulodda kam sonli qahramon ifodalanmagan. Unda o'z peshona terisi bilan topgan shaxsiy mulkini himoya qilgan Rayim polvon bor", - degan fikrlaridan uning garchi asar davomida ko'p tilga olinmasa-da, zamonasining asl erkaklaridan biri bo'lganligini sezish mumkin. Tirikligi vaqtida uning uyi doim mehmonlar bilan, polvonlar bilan to'la bo'lar edi. Ammo zamon charxpalagi teskari aylanib, Zamonlar qo'liga o'tgach, non-tuzini yeb yurgan odamni quloq qilish uchun ta'qib qilishi, oxir-oqibatda itdek xor qilib otib tashlashi asardagi kontrasni keltirib chiqaradi. Uning o'limi orqali esa oila va ijtimoiy qadriyatlar buzilishi tasvirlanadi. Bu o'lim nafaqat biologik, balki ramziy fojeani ifodalaydi.

O'g'il — kelajak, davomiylik, yangi avlod timsoli. Hikoyada o'g'il otasini otib tashlashganidan so'ng mehmonxonaga kirib miltig'ini olib chiqadi va bir askarga o'q uzadi. Buni ko'rgan Zamon otboqar esa unga qarata bir necha marta o'q uzadi. Bu ham yetmagandek, yoniga kelib boshiga tepishi va qo'lidagi miltig'ini uloqtirib yuborishi onaning qalbidagi nafratini yanada kuchaytiradi. Hikoyada o'g'ilning sabza urgan mo'ylovining titrab ketishi, onasiga bir zum qo'rquv va hijolat aralash tikilishi, aslida, o'z farzandlik burchini ado etolmagan o'g'ilning o'lim oldidan onasidan rizolik so'rashi edi. Uning o'limi esa ona umidining butkul yo'qolishi va jamiyatning uzluksiz tanazzulini bildiradi.

Ota va o'g'il o'limidan keyin atrofdagilarga hayot odatdagidek davom etayotgandek go'yo, lekin Bayna momo uchun ma'nosi sinib bo'lgan edi.

Hikoyada ona — o'ta murakkab timsol. Uni turli taraflardan tahlil qilish mumkin. Birinchi tarafdin, ona odatda hayot beruvchi timsol, bu asarda esa hayotni tortib oluvchiga aylanadi. Bu juda kuchli badiiy inversiya, ya'ni hayot manbaining o'lim ijrochisiga aylanishi. Bu holat jamiyat qanchalik buzilganki, hatto ona ham qotilga aylanishga majbur bo'ladi, degan fikrni beradi.

Ikkinchi tarafdin esa Bayna momo obrazi qasoskor emas, hukm chiqaruvchi; qotil emas, sudya ham emas, xalq vijdoni timsoli. U qon to'kib zavqlanmaydi, jazoni jimlik bilan bajaradi, o'zi bilan birga sirni olib ketadi. Shuning uchun ham uning o'limi — oddiy biologik o'lim emas,

viydonning sukutga ketishidir. Ona o'limi orqali hayotning oxirgi tayanchi ham yo'q qilinadi, oila va kelajak butunlay yo'qoladi. Bu mutlaq fojea va falsafiy sukutdir.

Bu epizod orqali Nazar Eshonqul shuni ko'rsatadiki, qonunni zamon buzgan, sud yo'q, adolat yo'q, lekin viydon baribir hukm chiqaradi. Bu hukm jamiyatni tuzatmaydi, faqat fojeani hujjatlashtiradi, xolos. Ammo aynan shu sukut uning obrazini ma'naviy jihatdan kuchli qiladi. U zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob bermaydi, balki ramziy jazoni tanlaydi.

Bayna momo obrazi o'zbek adabiyotida sukut orqali hukm chiqaruvchi eng kuchli ayol obrazlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif bu epizod orqali o'limni yakun emas, haqiqatni ochuvchi hodisa sifatida talqin qiladi; zo'ravon zamonda adolat faqat viydon darajasida mavjud bo'lishini ko'rsatadi.

Asar taskin bilan emas, dahshatli sukut bilan tugaydi. Shamol (zamon, zo'ravonlik, beqarorlik) hech kim qo'lida emas, hammani urib o'tadi. Ota qarshilik qildi — o'ldi. O'g'il davomchi bo'la olmadi — o'ldi. Ona qarshilikni qotillik orqali qildi — ma'naviy sinadi. Demak, hikoyada yakuniy o'lim adolatni tiklamaydi, fojeani to'xtatmaydi, balki zo'ravonlikning nasldan naslga o'tishini ko'rsatadi. Zamon otboqarni onaning o'ldirishi — qahramonlik emas, zamon majbur qilgan fojeaviy tanlovdir.

Hikoyada jinoyat jinoyat bilan "yopiladi", qonun emas, o'lim hayotni tuzatmaydi. Bu asar o'limni ijtimoiy fojia, zo'ravonlikni esa o'zini takrorlovchi jarayon sifatida talqin qiladi.

Tahlillar orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, asarda asosiy qahramonlar va ularning o'limi quyidagi bir necha shakllarda namoyon bo'lgan: birinchidan, biologik o'lim shaklida, ya'ni qahramonlar jismonan yo'q qilinadi. Ikkinchidan, ijtimoiy o'lim ko'rinishida. Bunda oila, kelajak va jamiyat qadri buziladi. Uchinchidan, ma'naviy o'lim shaklida: adolat, viydon va insoniy qadriyatlar o'chadi, jamiyat tanazzulga yuz tutadi. To'rtinchidan, ruhiy o'lim bo'lib, Bayna momo holati buning yaqqol dalilidir.

Demak, asarda o'lim biologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va ramziy shakllarda namoyon bo'ladi. Bayna momo obrazi orqali ruhiy va ramziy o'lim chuqur ifodalanadi.

Asarning yakuniy g'oyasi shamolni tutib bo'lmaydi, lekin shamolga qarshi chiqqanlar ham birin-ketin qurbon bo'ladi. Zo'ravonlik hukmron zamonda axloq, oila, inson ham tirik qolmaydi. Ya'ni hikoyada o'lim individual fojia sifatida emas, balki ijtimoiy falokat sifatida beriladi va har bir o'lim — inson ruhining va jamiyatning zaifligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda ota o'ldi — ildiz uzildi, o'g'il o'ldi — kelajak yo'qoldi, Zamon otboqar o'ldi — jamiyat poklanmadi. Shunday ekan, o'limlar tozalovchi kuch emas, balki tanazzul belgisi bo'lib qoladi. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida o'lim individual fojia emas, balki ijtimoiy va falsafiy fojea bo'lib, qahramonlar o'limi zanjir sifatida rivojlanadi; jinoyat va qasos mavjud bo'lsa ham fojea tugamaydi. Asar kitobxonni taskin

emas, balki hayot va adolat haqida savol bilan tark etadi. Asar oxirining asl ma'nosi esa shamolni tutib bo'lmaydi, lekin shamolga qarshi turadiganlar o'lsa, zamon faqat Zamon otboqlariga qoladi. Demak, hikoyada o'lim individual fojia emas, balki ijtimoiy va falsafiy fojia sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek adabiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Eshonqul, "Shamolni tutib bo'lmaydi". Qissa va hikoyalar. Toshkent. 2005.
2. Mahfuza To'ychiyeva. 2023. Badiiy tafakkur va adabiy talqin mutanosibli (Nazar Eshonqulning hikoyasi misolida). O'zbekiston: til va madaniyat,4[2]; 175-183
3. Nazar Eshonqul. 2014. "Mendan "men" gacha". Toshkent: Akademnashr.
4. Cho'liiyeva N. 2022. "Nazar Eshonqul hikoyalari badiiyati va uslubi". Hozirgi adabiy jarayon masalalari. Toshkent: "Fan".
5. Nazar Eshonqul. Geometrik shoir yoxud avlodning avangard ijodkori ijodiga chizgilar. Faxriyor «Ijodiy uchrashuv» teleloyihasida (2018) Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)
6. Gulfiza Murodullo qizi. 2015. Bir hikoya tahlili (Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi misolida). Termiz.